O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 19 - iyul 605-4-0-Q/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 373-sonli qarorining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 373-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 373-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Qodirov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi (Rahmanqulov) hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib borish hamda kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishi bo‘yicha sektor rahbarlari bilan birgalikda tegishli choralar ko‘rishga mas’ul hisoblansin.

3. Markaziy bank viloyat boshqarmasi (Mo‘minov), tijorat banklariga:

Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasi (To‘ychiyev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Nusurov), shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun – mohiyatini va amalga oshirilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, aholi o‘rtasida keng yoritilishini ta’minlash;

mahsulot yetkazib beruvchi tadbirkorlik subyektlarining Yagona elektron platformada ishtirok etishga jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar va loyihalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlarga oid maxsus ko‘rsatuvlar, ijtimoiy reklamalar va roliklarning muntazam namoyishini yo‘lga qo‘yish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **M.Azimov**